

I. OFISNING VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

Quyidagilar Ofisning asosiy vazifa va funksiyalari hisoblanadi:

1.1. Jamiyatning barcha tizimida O‘zbekiston Respublikasi Senati, Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi

va uning Prezidiumining qarorlari, farmoyishlari, topshiriqlarining sohaga oid qismini, Jamiyat boshqaruvining qaror va topshiriqlarini o‘z vaqtida sifatli bajarilishini

va nazoratini ta’minlaydi;

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-son farmoni ijrosini ta’minlashni tashkil etadi;

1.3. Jamiyatda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, Jamiyatning tashqi qarzlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag‘larni jalb etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

1.4. Jamiyatda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini keng joriy etilishini ta’minlaydi;

1.5. Xalqaro konsalting tashkilotlari ko‘magida Jamiyatning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar (MHXS) asosida tayyorlanishini ta’minlaydi;

1.6. Jamiyat tarkibidagi korxonalarni tugatish hamda qayta tashkil etish ishlarini qonun hujjatlariga asosan amalga oshirilishini nazorat qilish hamda vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ijrosini ta’minlash;

1.7. Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni, shu jumladan kelajakda xalqaro savdo va moliya bozorlariga chiqishda ko‘mak beruvchi ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) hisobdorlik tizimlarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasini o‘zlashtiradi;

1.8. Jamiyatning yashil iqtisodiyotga o‘tish masalalarini muvofiqlashtiradi;

1.9. Davlat-xususiy sherikchilik va transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, investitsion muhit jozibadorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

1.10. Iqtisodiyot tarmoqlarining «yashil» va kam uglerodli rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalarni joriy qiladi;

1.11. Tarmoq tashkilotlarining barqaror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida «yashil» iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan rejalarini amalga

oshirish va rivojlantirish istiqbollari bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda ushbu sohaga investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko'radi;

1.12. Energiya va resurs samaradorligini oshirish hamda kam chiqindili mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektori o'rtasida integratsiyani ta'minlaydi;

1.13. Uzoq muddatli istiqbolda barqaror ish o'rinlarini yaratish uchun «yashil» iqtisodiyotga o'tish davrida xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, shuningdek, ularning «yashil» o'sish bo'yicha salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

1.14. Korrupsiyaga qarshi kurashish (ISO 37001) standartlari bo'yicha xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, Ofisda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rishni tashkillashtiradi;

1.15. Jamiyat transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha "UZAssets" AJ bilan hamkorlikda amalda ishlarni olib borish.